
"Olima ayollar jamiyat ko'zgusi" mavzusida tadbir bo'lib o'tdi!

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi faollar zalida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 3-fevral 4-sonli "Ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar kuni" hamda 1- mart olim va shoira Zulfiyaxonimning 108 yillik tavalludi munosabati bilan " Olima ayollar jamiyat ko'zgusi" mavzusida tadbir tashkil etildi.

Tadbir akademik litsey xotin-qizlar kengashi raisi Umida Mamatjonova, Filalogiya fanlari doktori professor Uljan Davirovna hamda Filalogiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Eshmurodova Zarifa tomonidan akademik litsey o'quvchilari uchun qiziqarli tarzda olib borildi.

Tadbir davomida o'quvchi qizlarga ulug'vor ayol timsoli sifatida Zulfiyaxonimning hayoti va ijodi haqida yaqindan tanishtirildi. O'quvchilar uchun ushbu tadbir foydali va manfaatli bo'ldi.

